

Natalya TEMIROVA

HUQUQIY TARG'IBOT – DAVR TALABI



ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИНING
КОНСТИТУЦИЯСИ



Taqrizchi

Safar Abduxoliqov, falsafa fanlari doktori.

Natalya Temirovaning «Huquqiy targ'ibot – davr talabi» nomli ilmiy-ommabop risolasi muallifning OAVda chop etilgan maqolalari, turli tadbir va anjumanlar uchun mo'ljallangan ma'ruzalar matni asosida tayyorlangan. Ushbu risola yosh huquqshunoslar, talaba-yoshlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, huquqiy targ'ibot masalasiga bag'ishlangan. Risola bugungi kunda yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

ISBN-978-9943-372-33-7
KHB № 43591/1-1

TO'PLAM Y. T. UFA'Y

© "Tafakkur" nashriyoti
Toshkent, 2009-y.

Siyosiy madaniyat va milliy qadriyat

Mamlakatimiz huquqiy-demokratik hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishning o'ziga xos, o'ziga mos yo'lidan bormoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimizning hukumatning bir qator Farmon va qarorlari hayotimiz uchun dasturulamal bo'lmoqda. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-mayda qabul qilgan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi»ni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirdi. Shuningdek, Prezidentimiz Islom Karimovning 2008-yilda «Ma'naviyat» nashriyotida chop etilgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari erkinlikning oliy ifodasi – istiqlol g'oyalarining tub mohiyatini ongimizga, qalbimizga etkazib berdi. Bugungi va ertangi hayotimizni qanday tashkil etish borasida har bir fuqaroga dasturulamal bo'ldi. Asosiy maqsad mamlakat mustaqilligini yanada mustahkamlashdir. Buning uchun nimalar qilmog'imiz, qanday yo'l tutmog'imiz, milliy g'oyani qanday rivojlantirishimiz lozimligi to'g'risida «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida shunday deyiladi: «Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda,

farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak».

Millatning eng muhim boyligi – xalqning ma'naviy qiyofasi. Ma'naviyatni rivojlantirish, ilm-fanga keng yo'l ochish, davlat tomonidan yoshlarning qo'llab-quvvatlanishi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi, «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihalarining qabul qilinishi va 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi mamlakatimizda yoshlarga naqadar katta e'tibor qaratilayotganidan darak beradi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilayotgani, yoshlarning huquqiy bilim olishlari uchun zamonaviy bilim maskanlari barpo etilishi, ularning kamoloti uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilishi biz – murabbiylarga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar, hozirgi kunda kechayotgan globallashuv jarayonlari tufayli tilimizda paydo bo'lgan yangi iboralar, turli atamalar va tushunchalar turmushimizga singib bormoqda. Shunday tushunchalardan biri siyosiy madaniyatdir. Xo'sh, siyosiy madaniyat nima? Mustaqillik davrida uning o'rnini qanday? O'zbekistonda siyosiy madaniyat va milliy-ma'naviy qadriyatlarining o'zaro munosabati, bir-biriga bog'liqligi nimalardan iborat?

Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning muhim

turi bo'lib, jamiyat hamda har bir fuqaroning davlat ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirish madaniyati hisoblanadi.

Shuningdek, siyosiy madaniyatni kishilarning xulq-atvori ko'rinishi, siyosiy hokimiyatni ijro etish, uni anglash va qadrlash tuyg'usi, siyosiy jarayonlarda ularning ma'naviy dunyosining o'ziga xos namoyon bo'lishidir, deb ham aytish mumkin.

«Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak», – deb ta'kidlaydi Prezidentimiz o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida. Mustaqillik yillarida aholi siyosiy ongini oshirish borasida bir qator tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Bu jamiyat fuqarolarining faolligi, davlat ichki va tashqi siyosatini anglab yetishi, yuz berayotgan siyosiy jarayonlardan to'g'ri xulosa chiqara olishida o'z aksini topmoqda.

Endi O'zbekistonda siyosiy madaniyat va milliy-ma'naviy qadriyatlarining bir-biriga bog'liq jihatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu mavzu nisbatan kam o'rganilganligini ko'ramiz.

Zero, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishda demokratiyaning umumiy qonuniyatlariga amal qilish bilan birga, har bir xalq va mamlakatning milliy-ma'naviy qadriyatlari xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

Jamiyatning siyosiy madaniyati umuminsoniy ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Ammo turli xalqlar siyosiy madaniyatida shu xalqlarga xos urf-odatlar va an'analar yoki, boshqacha aytganda, milliy-an'anaviy qadriyatlar o'z aksini topadi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi azaldan milliy-ma'naviy qadriyatlari shakllangan,

o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarga ega millat hisoblanadi. Afsuski, ajdodlarimiz qoldirgan milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz istibdod yillarida bir tomonlama o'rganildi, hatto ba'zi an'alarimiz ta'qiqlab qo'yildi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga yot mafkuraga tayangan davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy madaniyat o'zining milliy-ma'naviy negizlaridan ajratib tashlandi.

Istiqloq tufayli xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganishga katta imkoniyatlar ochildi. Albatta, milliy-ma'naviy boyliklarni o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish katta mehnatni talab etadi. Urf-odatlarimiz, an'alarimizning millat moddiy va ma'naviy takomiliga, milliy davlatchilik manfaatlarini rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini, mustaqil O'zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyatini tushunish jamiyat ma'naviy yuksalishining muhim omili hisoblanadi.

Qadriyatlar – xalqimizning ko'rki va bebaho mulki. Ota-bobolarimizdan meros qadriyatlarga amal qilish, ularni hozirgi zamon an'analari bilan boyitish hamda davom ettirish, mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qildirish bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi.

O'zbekiston va jahon

Mustaqillik O'zbekiston uchun azaliy orzu bo'lgan barcha millatlar va xalqlar bilan teng darajada hamkorlik qilish huquqini berdi. Bugungi kunda u xalqaro huquqning to'laqonli subyektini sifatida shakllandi va uning xalqaro maydondagi faoliyati kengayib bormoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamiz Konstitutsiyasiga ilk marotaba tashqi siyosatni tartibga soluvchi normaning kiritilishi katta siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'ldi. Uning 17-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farvonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga a'zo bo'lishi yoki ulardan ajralib chiqishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyektini sifatida o'z suverenitetini hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish bilan birga, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va terrorizmga qarshi kuchlarning xalqaro koalitsiyasi faoliyatida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Davlat xavfsizligi, siyosiy va iqtisodiy erkinligini mustahkamlashda, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda tashqi siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o'z o'rnini egallash bilan bir qatorda, BMT, YeXHT, ShHT, KXShT, MDH kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan tizimlar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash ishiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgani hech kimga sir emas.

Ozodligimiz qomusi

Mustaqilligimizning mustahkam poydevori bo'lgan Konstitutsiyani yaratishda jahon qonunchiligining ijobiy jihatlari chuqur o'rganildi va o'zbek xalqining qadim davlatchilik tarixi, ma'naviyati, an'analari ham e'tiborga olindi.

Natijada Qomusimiz xalqimizning to'la xohish-irodasini o'zida aks ettirishi bilan birga, xalqimizning hayoti, ijodiy kamoloti uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Asosiy Qonunimizning 7-moddasida: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi», deyiladi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, inson davlat hokimiyatining yagona manbai, shuning uchun ham uning qadr-qimmatini yuksak o'ringa qo'yilgan. Xalq manfaatlarini davlat hokimiyati himoyasidir.

Qomusimizda o'ziga xos milliy qadriyatlarimiz, milliy tafakkurimiz, ma'naviyatimiz mujassam. Unda

adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik kabi xislatlar o'z aksini topgan.

Ma'lumki, huquqiy davlatning g'oyalari, tamoyillari va me'yorlari hayotga tatbiq etilishini fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro huquqlar va burchlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu davlat va uning hokimiyat organlari orasida bo'ladigan munosabatda inson omilining ustuvorligini anglatadi.

Huquqiy davlat shaxsning o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarishini ta'minlamog'i hamda uning ehtiyojlariga xizmat qilishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Shuningdek, Konstitutsiyamiz moddalarining har tomonlama teran haqiqat, adolat, insof, diyonat ruhi bilan sug'orilganligi, unda ma'naviyatimiz rivojiga mustahkam poydevor bo'luvchi asosning mavjudligi demokratik-huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi eng muhim qadamdir.

Umuman olganda, mustaqil respublikamiz Asosiy qomusida inson huquqi va erkinligini kafolatlovchi, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim qoidalardan o'z aksini topgan. Muhim vazifalardan biri ushbu qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik va har bir fuqaroning o'zaro tengligini va manfaatini ta'minlashdan iboratdir.

Konstitutsiyamizning inson huquqlari, ma'naviyat, madaniyat tushunchalarini o'z ichiga olganligi, ma'naviyatning xalq farovonligi yo'lidagi ahamiyatini o'zida mujassam etganligi ma'naviy taraqqiyot yo'lidagi ulkan kashfiyotdir.

Umummilliy boyligimiz

Yer – xalqimizning umummilliy boyligi, mamlakat ahlining hayoti, farovonligining asosiy manbai.

Undan oqilona foydalanish zarur va mamlakat hududidagi barcha yer maydonlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Yer kodeksi»da qayd etilganidek, bu sohadagi asosiy vazifa hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlagan holda yerdan ilmiy asoslangan tarzda oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bu boradagi huquqlari himoyasini ta'minlash, yer munosabatlarini tartibga solish va qonuniylikni mustahkamlash kabi ko'p qirrali tadbirlardan iborat.

Yer davlat mulki, umummilliy boyligimizdir. Yer davlat tomonidan muhofaza etiladi, u oldi-sotdi va ayirbosh qilinmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi. Biroq bu masalada mustasno hollar ham borligini inobatga olish lozim. Chunonchi, mavjud yer fondining mutlaq egasi sifatida davlat o'z tasarrufidagi yerni qonunda belgilangan hollarda oldi-sotdi, meros, tarzida va shu singari ko'rinishlarda yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyoriga berish vakolatiga ega. Bunda davlatning yerga nisbatan mulkdorlik huquqi, yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu huquqlaridan ustun turishini farqlamoq lozim.

Yerga nisbatan davlatning bu kabi ustuvor huquqlari «Yer kodeksi»dan tashqari, «Fuqarolik kodeksi». «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunlarda ham o'z ifodasini topgan.

Yerdan xususiy mulk sifatida foydalanish huquqi ko'chmas mulk joylashgan yer uchastkalarini sotib olish tufayli paydo bo'ladi. «Yer kodeksi»ning 18-moddasiga ko'ra, mulk huquqi savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda vujudga keladi. Bundan tashqari, yurtimizdagi

diplomatik vakolatxonalar xodimlari, chet ellik jismoniy va yuridik shaxslar uy-joy sotib olganlarida ham ular joylashgan yer uchastkalariga nisbatan mulk huquqi yuzaga keladi. Qonun yer uchastkalaridan faqat aniq maqsadda foydalanishni shart qilib qo'yadi.

Boshqacha aytganda, yer uchastkalaridan foydalanish uni tasarruf etish huquqini qo'lga kiritgan jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyat turi bilan bevosita bog'liqdir va undan o'zga maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Yana bir e'tiborli holat haqida ham to'xtalmoq darkor. Qonuniy asoslarda yer munosabatlari masalasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlar va uning yechimi ham nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yer kodeksi»ni tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida»gi Qaroriga binoan yer munosabatlariga oid bir qator nizolarning tegishli hujjatlar asosida sudda da'vo ishi yuritish tartibida ko'rib chiqilishi belgilangan.

Qonunchiligimizning yuqorida ko'rsatilgan talablari barcha manfaatdor tomonlardan onayirimizga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash, unumdorligi, samaradorligi va hosildorligi to'xtovsiz orta borishini ta'minlash, olinadigan noz-ne'matlar miqdorini muttasil ko'paytira borish va sifatini tobora yaxshilash bilan bog'liq barcha tadbirlarni izchil amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shu pirovard maqsadga yer to'g'risidagi qonunlar talablariga becam-u ko'st rioya qilish tufayli erishiladi, albatta. Binobarin, ona-zamin — xalqimizning milliy boyligi, farovonligimiz manbai. Avvalo, har qarich yerni, ekinni, qolaversa, butun ona-tabiatni e'zozlagan insonlarga u o'z saxovatini in'om etaveradi.

Xizmat vazifasi mas'uliyati

Adliya vazirligining Toshkent yuridik kolleji bitiruvchilari, asosan, huquq-tartibot idoralarida davlat xizmatchilari orasida ishlashadi.

Davlat xizmatchisi – bu davlat tashkilotida belgilangan tartib bo'yicha biron-bir mansabni egallab turgan hamda xizmatni amalga oshiradigan shaxsdir. Ular to'rt guruhga bo'linadi: yordamchi xodimlar, mutaxassislar, mansabdor shaxslar, hokimiyat vakillari.

Mansabdor shaxslar ma'muriy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtalishini ta'minlaydilar. Bunday yuridik harakatlarning tarkibi har xil bo'lib, bu davlat xizmatchisining ishlab turgan lavozimiga bog'liq.

Hokimiyat vakili esa mansabdor shaxslarning alohida guruhi bo'lib, ular davlat nomidan hokimiyat talablarini ko'rsatish huquqiga ega. Hokimiyat vakillari o'zlariga xizmat yuzasidan bo'ysunmagan shaxslarga ham bajarilishi shart bo'lgan farmoyish berishga haqli. Bu guruhga davlat nazoratchilari ham kiradi.

Xizmat vazifalarini buzgani uchun davlat xizmatchilari jinoiy, ma'muriy, moddiy va intizomiy javobgarliklarga tortiladi. "Ma'muriy jinoyatchilik to'g'risida"gi kodeksning 15-moddasida mansabdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlashi, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilishi belgilangan. Ular mazkur qoidalar va bajarilishini ta'minlash xizmat vazifalari doirasiga

kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaslik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlikka yo'l qo'yishganda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Mansabdor shaxslarning nojo'ya xatti-harakatlari: birinchidan, o'z harakatlari bilan belgilangan qoidalarni buzishlari; ikkinchidan, qo'l ostidagilarga ana shu qoidalarga zid keladigan ko'rsatmalar berishlari; uchinchidan, o'zlari bo'ysunuvchi shaxslarning qoidalariga rioya qilishni ta'minlash yuzasidan choralar ko'rmaganligi tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Mansabdor shaxslar hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganliklari uchun ular tomonidan sodir etilgan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik boshqa shaxslar sodir etgan huquqbuzarliklarga nisbatan ko'proq zarar yetkazishi mumkin. Shu bois mansabdor shaxslarning sodir etgan huquqbuzarliklari uchun "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksda ularga jarima jazosi boshqa shaxslarga nisbatan oshirilgan tarzda belgilangan.

Mazkur kodeksning 193-moddasida davlat idoralari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar muassasalar va tashkilotlar oldidagi o'z vazifalarini bajarmasligi, ularning ishiga to'sqinlik qilganligi, ataylab soxta ma'lumot berganligi, deputatlik faoliyatining kafolatlarini buzganliklari uchun mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorida jarima solish belgilab qo'yilgan.

"O'zbekiston Respublikasi deputatlarining maqomi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga muvofiq, har bir deputatga o'z vakolatlarini moneliqsiz va samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishiga kafolatlar berilgan, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qilingan. Deputat oldida o'z

vazifalarini bajarmaydigan, uning ishiga to'sqinlik qiladigan, unga ataylab soxta ma'lumot beradigan deputatlik faoliyati kafolatlarini buzadigan davlat va jamoat idoralari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga lavozimlaridan ozod etilishgacha bo'lgan intizomiy yoki ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Davlat xizmatchilarining boshqa guruhlariga kiruvchi shaxslar mutaxassislardir. Bu guruhga muhandislar, shifokorlar, agronomlar, kutubxonachilar va boshqalar kiradi. Ular, odatda, yuridik harakat bilan shug'ullanmasalar-da, qonunda ruxsat berilgan hollarda mutaxassislarining faoliyati yuridik ahamiyatga molik natijalarga olib kelishi mumkin. Shunda qonun buzilish holatlari oqibatida davlat xizmatchilari ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Masalan, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 54-moddalarini, ya'ni epidemiyaga qarshi kurashish qoidalarini, ya'ni karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi yoki tarqalishining oldini olish maqsadida belgilangan majburiy qoidalarni buzganliklari uchun fuqarolarni eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarni esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorida jarimaga tortish belgilab qo'yilgan. Ushbu huquqbuzarlikning subyekti har qanday shaxs, jumladan, davolash muassasalarining xodimlari bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilayotgan g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizliklarning aksariyati ularni ma'muriy javobgarlikka tortishga asos bo'lmoqda.

Misollardan ko'rinib turibdiki, davlat xizmatchilari sodir etgan huquqbuzarliklar nisbatan birmuncha

og'irroq oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksda davlat xizmatchilarining bir guruhi bo'lgan mansabdor shaxslarga nisbatan og'irroq jarima jazosi qo'llaniladi.

Jamiyat va huquq

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Konstitutsiya — istiqloq mahsuli, shu bilan birga, uni himoya qiluvchi qalqon, jamiyatimizning asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi. Eng muhimi, Konstitutsiya tufayli O'zbekiston Respublikasi yangi demokratik davlat sifatida dunyo siyosiy xaritasidan munosib o'rin egalladi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, unda davlatning qiyofasi, jamiyatning xususiyati o'z ifodasini topadi, hayotimizning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimi, demokratik tamoyillarga asoslangani, umuminsoniy qadriyatlarining ulug'lanayotgani, fuqarolarning haq-huquq va erkinliklari nechog'li kafolatlangani hamda himoya qilinayotgani ko'rinib turadi.

Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiyamizning mohiyatiga ta'rif berar ekan, shunday deb ta'kidlab o'tgan edi: «Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir odam o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi».

O'tgan davr ichida Konstitutsiyamiz ham jiddiy hayotiy sinovlardan o'tdi. Xalqimiz hayotida bu muhim hujjat asosida asrlar mobaynida yuz berishi mumkin bo'lgan tengsiz o'zgarishlar amalga oshirildi.

Yurtimiz sho'rolar davridan meros bo'lib qolgan chuqur iqtisodiy tanazzuldan qutuldi, o'tkazilayotgan

keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy islohotlar tufayli bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot qaror topib bormoqda, demokratiya tamoyillariga asoslangan milliy davlatchilik va huquq tizimi shakllanmoqda, ijtimoiy-madaniy soha barqaror rivojlanib, kishilarimizning ma'naviy qiyofasi yangilanmoqda, ularning ongiga istiqbol g'oyasi tobora chuqurroq singib bormoqda, mustaqil yosh davlatimiz xalqaro jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallamoqda.

Davlatimizning asosiy Qonuni – Konstitutsiyamiz vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi. Hozirda u kundalik hayotimizning rivojlanishi va uning istiqbolini belgilashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz buyuk kelajagining asosiy huquqiy kafolati sifatida jamiyatning rivojlanishiga va davlat qurilishida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga asos soldi.

Eng asosiysi, Bosh Qomusimiz bo'lgan Konstitutsiya mamlakatimizda qonunchilik faoliyatining rivojlanishiga va bu sohada erkin ijod qilishga imkoniyat yaratib berdi. Konstitutsiyani ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi masalalarni hal qilib beruvchi boshqa hamma qonunlar, shu jumladan, maxsus qonunlar tizimini tashkil etuvchi kodekslarning yuridik manbai desak, adashmaymiz.

Shu bilan birga, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifalarning ko'lami milliy davlatchiligimiz tizimini va uning konstitutsiyaviy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasiga muvofiq 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi ham ana shu zarurat hosilasidir. Mazkur konstitutsiyaviy Qonun davlatimizning qonunchilik hokimiyati bo'lmish Oliy

Majlis tarkibini o'zgartirish, ya'ni quyi palata – Qonunchilik palatasi va Senat deb ataladigan yuqori palatani tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muhim masalalarni hal etish imkoniyatini yaratdi. Parlament palatalarining o'ziga xos jihatlari, ularning qonun qabul qilishdagi o'zaro aloqasi va munosabati, palatalarning shakllanish tartibi, a'zolari soni va vakolat muddatlari ana shunday muhim masalalar sirasiga kiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat xususiyatlariga xos bo'lgan insonparvar, demokratik va ijtimoiy adolatli davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linishi; Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi; shaxsiy daxlsizlik, mulkning daxlsizligi, fikrlarning xilma-xilligi, fuqarolarning millatidan, irqidan qat'i nazar, teng huquqliligi, barchaning qonun oldida tengligi; fuqaro va davlatning bir-biriga nisbatan bo'lgan huquq va burchlarining o'zaro bog'liqligi kabi ko'plab tamoyillar o'z aksini topgan. Ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar alohida qonun hujjatlari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlariga qarab, tegishli shakl va usulda huquq me'yorlarida ifoda etilmoqda. Bu esa Konstitutsiyamizning tarixan sinalgan umumbashariy demokratik qadriyatlarni o'zida mujassam etganini ko'rsatadi.

Zero, mamlakatimiz Konstitutsiyasi ilg'or taraqqiy etgan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga tayangan holda yaratilgan. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umumiy tamoyillari etilgan qoidalariga to'liq mos keladi. Prezident Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-

ularni amalga oshirishda yordam berayotgan shaxslarning moliyaviy mablag'lari va boshqa pul mablag'laridan foydalanishni taqiqlab qo'yish;

– o'z fuqarolariga yoki har qanday shaxslar, yoxud tashkilotlarga terror aktlarini sodir etayotgan yoki ularni sodir etishga harakat qilayotgan, yoxud ularni sodir etishda ishtirok etayotgan, yoki ularga yordam berayotgan shaxslar, yoki tashkilotlarga har qanday moliyaviy aktivlar yoki iqtisodiy resurslar, vositalar yoxud iqtisodiy va boshqa moliyaviy xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ko'rsatishni taqiqlab qo'yish».

Xalqaro terrorchilikning avj olayotgani, ayniqsa, Afg'oniston va boshqa ba'zi davlatlar tomonidan terrorchi uyushmalarning o'z hududidagi «harbiy lagerlarda» bemalol tayyorgarlik ko'rayotganligi nafaqat mintaqa, balki dunyoga xavf va ochiqdan-ochiq tahdid solib turgani bugungi kunda ko'pchilikka ayon. Bu masalaga endilikda barcha davlatlarning hamkorlik va hamjihatlik bilan qarshi kurashi dolzarb masalaga aylanmoqda. Davlatimiz rahbarining keng doiralardagi xalqaro anjumanlarda terrorizmga qarshi kurashishda barcha davlatlarning hamjihatlik yo'lini tutishi haqidagi da'vatlari zamirida ham terrorizm xavfi hech qachon chegara bilmasligini ko'rsatib, dunyoni ogohlikka chaqirib turganligini anglaymiz.

Mundarija

Siyosiy madaniyat va milliy qadriyat	3
O'zbekiston va jahon	7
Ozodligimiz qomusi	8
Umummilliy boyligimiz	9
Xizmat vazifasi mas'uliyati	12
Jamiyat va huquq	15
Huquqiy bilimlar majmuasi	21
Tenglik – adolat garovi	27
Qonun va ma'naviyat	30
Yashash huquqi daxlsizdir	34
Mahalla – huquqiy va axloqiy tarbiya o'chog'i	37
Bola huquqlari muqaddas	45
Tarbiya – ota-ona mas'uliyati	48
Giyohvandlik balosi	50
Farzandlar oldidagi javobgarlik	53
Yot g'oyalar tahlikasi	56
Kasbiy-huquqiy ongni shakllantirish	59
Odam savdosi – xalqaro trafik jinoyat	65
Millat kelajagi yoshlar tarbiyasiga bog'liq	71
Vatanga xiyonat kechirilmaydi	75
Terrorizm ofati – global muammo	81